



AKMEOLOGIYANING TARIXI, RIVOJLANISHI VA BUGUNI

F. O. Xodjiyeva

Dots. p. f. n NAVDPI

D. Q. Doniyorova

pedagogika ta'lim yo'nalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada akmeologiyaning fan sifatida paydo bo'lishi, rivojlanishi, uning jamiyat hayotidagi o'rni, shu bilan birga akmeologiyaning ahamiyatli tomonlari, shaxsni rivojlantirishdagi o'rni haqida fikr bayon etilgan.

Kalit so'zlar: akmeologiya, rivojlanish, akmeologiya obekti, akme, fanlar tizimi.

Kirish: Bugungi kunda jamiyatning rivojlanishi, davlatimizning yuksak yutuqlarga erishishi har tomonlama o'sib, voyaga yetib kelayotgan yoshlarimizga, ularning bilim va kasb cho'qqilarini egallashi, har tomonlama mukammal shaxs bo'lib voyaga yetishiga bog'liq hisoblanadi. Ushbu so'zlarning tasdig'i sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlarini keltirish mumkin: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yanada ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman..." [1]

Asosiy qism: Akmeologiya—(grekcha "akme" - cho'qqi, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davr ma'nolarini anglatadi) u insonni o'z taraqqiyot dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarni namoyon qilishning kompleks masalalarini o'rganadi.

Yunonlar insonning nimagaki qodir bo'lsa qobiliyati va imkoniyati qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladigan barcha yetuklik belgilari namoyon bo'lgan umrining shu qismini "akme" deb ataganlar. Mashhur qadimgi yunon donishmandlari va faylasuflari tarjimayi hollarida ko'pincha ularning hayotlarining boshlanish va tugash sanalari emas, balki ular o'zlarining dunyoga donishmand va faylasuf sifatida namoyon etgan vaqtлari, ya'ni "akme" si ko'rsatilgan. Misol tariqasida Diogen Leartes Geraklitni tanishtirar ekan: "Uning gullagan davri 69- olimpiadaga to'g'ri keldi" deb aytganligini ko'rsatishimiz mumkin[2]

Akmeologiya tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, akmeologiyani "kamolot yoki voyaga yetganlik psixologiyasini" bildiruvchi tushuncha sifatida Ribnikov tomonidan 1928-yilda fanga kiritilgan. Uning keyingi rivojiga Ananev o'zining "Inson bilim obekti" asari bilan hamda peterburglik olimlar o'z hissalarini qo'shishgan.[3]

Bizga ma'lumki akmeologiyaning predmeti — akmeshaxs hisoblanadi. Akmeologiyaning predmetida shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal yetuklikka ega bo'lishi lozim degan konsepsiya yuzaga kelgan. Maksimal yetuklik shaxs rivojining yuqori cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq. Akmeologiya izchillik, ya'ni mukammallik cho'qqisiga intilish, bu - inson xayotining ajralmas xususiyati bo'lib, bu ibora orqali shaxsiy, kasbiy rivojlanish va o'zini-o'zi takomillashtirishga moyillik anglatadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, insonning ijodiy salohiyati bo'lib, u inson tomonidan



o‘ziga inoyat etilgan barcha imkoniyatlari va iqtidorini qanday qilib, qaysi qonuniyat va sharoitlarda ro‘yobga chiqarishni kompleks tarzda o‘rganadi. Akmeologiyaning obekti—hayotning turli sohalarida o‘zini o‘zi anglaydigan va muvaffaqiyatga erishadigan, izchil rivojlanayotgan yetuk shaxs.

Shundan ko‘rinib turibdiki, akmeologiya nafaqat pedagogika va psixologiya, balki jamiyatshunoslik, biologiya, ijtimoiy pedagogika kabi fanlar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Akmeologiya rivojlanib borgani sari olimlar ham fan haqida turli fikrlar bildirmoqdalar:

A. A. Derkach fikriga ko‘ra "Akme hayot harakati va rivojlanishi so‘nggi nuqtasini anglatmaydi, balki undan yuqori bosqichga ko‘tarilishning yangi ufqlari ochiladigan cho‘qqini anglatadi". AS Anisimov: "Akmeologiya faoliyat va inson ijodining cho‘qqilaridagi yutuqlarning qonunlarini va omillari to‘g‘risidagi fanlararo fandir" deydi.[4]

Maksimovaning fikriga ko‘ra: "Akmeologiya bu faoliyatda yuksaklikka erishish yo‘lidagi ta’limning tubdan qarama qarshiligini hal qilishni tartibga soluvchi qonunlar fanidir."

Akmeologiyaning asosiy mazmun mohiyati —har bir kasb hunarni ilm bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi, ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’nnaviy, huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, ijodiy faoliyatni kasb hunar sohasidagi burch va mas’uliyatni ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishish jihatlarini fanlar bilan uyg‘unlikda o‘rganishdan iborat bo‘lib, u insonning ijtimoiy iqtisodiy, ma’nnaviy dunyosida yuksakroq cho‘qqilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o‘rganadi. Bundan ko‘rinib turibdiki ushbu fan nafaqat rivojdagi cho‘qqisini balki, rivojlanishgacha va undan keyingi bosqichlarni ham o‘rganadi. Ma’lumki insonning rivojlanishi bevosita obektiv va subektiv omillarga bog‘liq. Obektiv omil: ta’lim sifatini o‘zi ichiga olsa, subektiv omil: insonning mahorati va qobiliyati, uning mas’uliyati va kompetensiyasi, muammolarni samarali hal qilish ko‘nikmasi kiradi.

Akmeologiya bugungi jamiyat rivojida ham katta o‘rin egallagan. CHunki yoshlarning rivojlanishi, ularning munosib avlod bo‘lib yetishishi, avvalo shaxsiy va kasbiy faoliyatida o‘z o‘rnini topishi muhim hisoblanadi. Bilamizki ma’nnaviy jihatdan qoloq, o‘z o‘rniga ega bo‘lmagan, tarixini bilmaydigan yoshlarni yot g‘oyalar o‘z domiga tortib oladi. Yoshlarning ongidagi bo‘sqliqni biz ezzuliklar bilan to‘ldirishga harakat qilmasak, ularni boshqalar yovuzliklar bilan to‘ldiradi. SHunga ko‘ra akmeologiyaning tamoyillarini quyidagicha sanashimiz mumkin:

1) Mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berish bunda ular uchun sog‘lom muhit yaratish, ta’lim tizimini isloh qilish, qadriyatlar, urf odatlarni tiklash, yoshlarda ularga nisbatan hurmatni shakllantirish.

2) O‘zbekistonda barkamol avlod tarbiyasida jismoniy, aqliy, ma’nnaviy jihatlariga etibor berish

3) Jamiyat muammolarini yoshlar muammolaridan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. SHu boisdan ham yoshlar shaxsining shakllanishida akmeologik bilimlardan foydalanish zarur.

Akmeologiya insoniy fanlar tizimidagi fanlararo bilim sohasidir, bu o‘z taqdirini o‘zi belgilash, hayotiy tajriba, ijtimoiy muhit va ta’lim shaxsiy va kasbiy mahoratning rivojlanish



qonuniyatlari haqidagi fan. U rivojlanish bosqichida bo'lgan yangi fandir. Bu fanning boshqa fanlardan ustuvorligi, u insonning butun hayot yo'lini o'rganadi.

Xulosa: Bugungi rivojlangan XXI asr olimlardan yanada puxtarloq, mukammalroq va zamon bilan hamnafas bilimlar talab qilmoqda. Chunki inson ham zamon bilan hamnafas rivojlanadi, o'sadi, u o'zgargan sari talablari, ehtiyojlari ortadi. Shu asosda zamonaviy akmeologiyada bir nechta asosiy vazifalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1)kamolot bosqichiga kirgan shaxsni o'rganish (jismoniy, psixologik, kasbiy rivojlanishdagi o'zgarishlar dinamikasi), shaxs rivojlanishining oldingi bosqichlarini o'rganish.

2)insonning kasbiy rivojlanishiga, intilish qobiliyatiga atrof muhitning ta'sirini o'rganish.

3)kasbni egallash bosqichlarini o'rganish, uning ijodiy va salbiy omillarini o'rganish.

4)turli odamlarning professionalligini baholash usullari va vositalarini yaratish kabilardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 26yilligiga bag'ishlangan marosimdag'i nutqidan. 2018yil

2.Y. N. Elvira "Shaxsiy rivojlanish". 2019y

3" Pedagogicheskaya akmeologiya" kollektivnaya monografiya. 2012g

4.Anisimov. O. S. Akmeologiya ta metodologiya: problem i psixotexniki i misletexniki. 1998g.